

AHOLI ORASIDA O'TKIR ICHAK KASALLIKLARINING TARQALISHI

Masharipova Sh.S

Ibraximova H.R

Sadullayev S.E

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'tkir diareyali kasalliklarning dunyo bo'yicha tarqalganlik darajasi va diareyali kasalliklarni keltirib chiqaruvchi qo'zg'atuvchilarning uchrash xususiyatlari, hamda O'zbekiston Respublikasidagi holat haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *diareya, qo'zg'atuvchi, salmonellyoz, dizenteriya, virus.*

Diareyali kasalliklar kurrai zaminimizda keng tarqalgan, ko'p uchraydigan va shu bilan birga ulkan iqtisodiy zarar yetkazayotgan kasalliklar sirasiga kirganligi bois ham butun jahon olimlarining diqqat markazida turibdi. Mazkur xastaliklarning insonlarda, ayniqsa, bolalarda og'ir va davomli kechishi oqibatida, ular o'rtasida o'lim ko'rsatkichlarining ancha oshib borishi tegishli soha mutaxassislarining tinmay izlanishlariga turtki bo'lmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu xastaliklar nafaqat bolalarning barvaqt nobud bo'lishiga yohud katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi, balki sog'lom avlod shakllanishi poydevoriga ham muayyan zarba beradiki, bu esa bolaning ruhiy va jismoniy rivojlanishida o'z aksini topadi: bola injiq, befarq va zaif bo'lib qoladi, natijada u turli xurofot va xastaliklarga moyil bo'lib, jamiyatimizga ma'naviy va yanada ko'p miqdorda iqtisodiy zarar yetkazadi.

Shuningdek, diareyali kasalliklar oqibatida bir qator surunkali somatik kasalliklarning (masalan, gastrit, enteritlar, enterokolit, kolit va boshqalar) shakllanishiga ham zamin yaratiladiki, buning pirovardida mazkur shaxs bir umr azob chekadi yoki nogiron bo'lib qoladi.

Jaxon Sog'liqni saqlash tashkilotining ta'rificha, ich ketishi, ya'ni diareya - bu ko'pchilik patologik holatlarning belgilaridan biri bo'lib, 24 soat mobaynida uch va undan ortiq marta suyuq najas (quyilgan idish shaklini oladigan darajada) ko'rinishida ich ketishidir. Mazkur belgi asosiy bo'lgan kasalliklar diareyali kasalliklar deb yuritiladi.

Jaxon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumoti va boshqa xorij olimlari olib borgan izlanishlar natijalari ko'rsatadiki, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarida 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning qariyb 1 milliardga yaqini O'YIK (o'tkir yuqumli ichak kasalliklari) bilan og'rishar va shulardan 4,6 mln. nafari o'lim bilan tugar ekan. So'nggi yillar ichida tibbiyot ilmining yuksalishi hamda davolash usullarining takomillashishi natijasida xastalikdan sog'ayish holatlari ortdi va bu borada o'lim ko'rsatkichi 3,3 mln.gacha pasaygan.

Barcha mintaqalar uchun xos xususiyat shundan iboratki, esherixiozlar asosan (3/4 qism holatida) shaharda yashovchi aholi orasida keng tarqalgan. Buning asosiy sabablari, birinchidan qo'zg'atuvchilarning shaharda kasallik chaqirishi uchun sharoit ko'pligi bo'lsa, ikkinchidan shaharda bakteriologik tashxis usullari yaxshi yo'lga qo'yilgani hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham O'YIK lar bilan kasallanish ko'rsatkichlari ancha yuqori bo'lib, uning soni oxirgi yillarda kamayish tendensiyasi kuzatilyapti. Mazkur ko'rsatkichlar, ayniqsa, bolalar orasida baland bo'lib, kasallik og'irlashuvining kamayish tendensiyasi kuzatilmayapti.

AQSH da salmonellyoz bilan og'rish holatlari tobora ortib borayotganligi diqqatga loyiqdir. Izlanishlar ko'rsatadiki, yil davomida rasman haqiqiy salmonellez bilan kasallanishning 1-5% igina hisobga olinar ekan, holos. Buyuk Britaniyada ham salmonellezlar bilan og'rish holatlari o'sib bormoqda. RF da salmonellez bilan kasallanishning eng katta o'choqlari har chaqnashda 53-115 kishidan 162 kishigacha, asosan bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilari, kasallanish kuzatilgan. Qo'zg'atuvchilar asosan D guruxiga mansub salmonellelar bo'lgan. Dizenteriya bilan kasallanish esa 2000 yilda oldingi yillarga nisbatan 36% ga kamaygan. Shunga o'xshash ko'rsatkichlar Uzbekiston Respublikasida ham uchragan, chunonchi Samarqand, Andijon, Toshkent viloyatlarida 1990 yilda har 100000 aholiga kasallanish 20-40 tadan to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000 yilda bu ko'rsatkich 15-18 tagacha kamaygan. Ma'lumotlarga ko'ra Xorazm viloyatida dizenteriya kasalligi uchrashi 1991 yilda har 100000 aholiga 37 ni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib 3,2 ga teng bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining ma'lumotiga binoan Xorazm viloyatida 1992 yilda 100000 aholiga 709,9 ta o'tkir ichak infeksiyalari hodisasi ro'yxatga olingan bo'lib, bu mamlakatimizning o'rtacha ko'rsatkichlaridan 1,4 marta ko'p demakdir.

Bolalar salomatligi va sanitariya ahvolidan ijobiy bo'lishi, o'z navbatida, mamlakatimizda yuqumli xastaliklar darajasining pasayishi bilan chambarchas bog'liqdir. Yuqumli kasalliklar hamda bolalar o'limining ortishi sabablarini o'rganish, shuningdek ularni kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda aholi salomatligiga barcha omillarni, jumladan atrof-muhitning ifloslanish darajasini inobatga olish muhimdir, chunki bolalar organizmi atrof-muhitning ifloslanish darajasiga, ayniqsa, ta'sirchan bo'ladilar. O'YIK larning rivojlanishi va insonlar orasida tarqalishi dastavval, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga, aholi turmush tarziga, shuningdek, qo'zg'atuvchilarning turi, miqdori hamda virulentligiga bog'liqdir.

Asrlar osha ona tabiatimizda sodir bo'lgan o'zgarishlar, shu jumladan ekologik buzilishlar bilan bir qatorda yuqumli kasalliklar, xususan, O'YIK lar qo'zg'atuvchilarida ham evolyutsion jarayon ro'y bergan. Rang-barang tashqi va ichki omillar ta'siri ostida yuqumli xastaliklar qo'zg'atuvchilarining patogenlik va virulentlik xususiyatlari o'zgarmokda. Shu kunga qadar ko'plab patogen mikroorganizmlar yo'qolib, o'rniga ilgari uchramagan va hozirgi zamon muhit shart-sharoitlariga moslangan yangi turlari paydo bo'lmoqda. Shu

boisdan ham O'YIK lari qo'zg'atuvchilarini aniqlash, ularning ahamiyatini holisona baholash, mazkur kasalliklarning tashxisi, terapiyasi va profilaktikasi uchun, ayniqsa, muhimdir.

Orol dengizining qurishi oqibatida yuzaga kelgan ekologik noqulay sharoit ushbu mintaqada florasi, faunasi va iqlimiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu mintaqada yashovchi aholi, ayniqsa, uning sezgir qismi bo'lgan tug'ish yoshidagi ayollar hamda bolalar salomatligi yomonlashuvi, kasallanishlar sonining ortishi bilan namoyon bo'lmoqda. Fikrimizcha, ekologik noqulay sharoit faqatgina inson, hayvonot va o'simliklar olamiga salbiy ta'sir etmay, balki mikroorganizmlarning ham xususiyatlarini o'zgartiradi. Oxirgi yillar mobaynida yuqumli kasalliklar, xususan ichak infeksiyalarining klinik kechishi va ulardagi epidemik jarayon tubdan o'zgardi. Shuning uchun ham ularning etiologik tashxisi anchagina murakkabliklarni yuzaga keltirmokda. So'nggi paytlarda aksariyat O'YIK larning birmuncha yengil kechishi, og'ir shakllari va intoksikatsiyaning kamayishi, retsidivlar va letal holatlarning sezilarli kamayishi, shu bilan birga kasallik qo'zg'atuvchilari xususiyatlarining o'zgarishi ham O'YIK lar qo'zg'atuvchilarining uchrash xususiyatlariga alohida to'xtalish zarurligini taqozo etadi.

Respublikamiz, shuningdek, Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari va Kozog'istonda O'YIK lar keltirib chiqaruvchi qo'zg'atuvchilar sifatida Salmonella, Shigella, Iersinae, Proteus Campylobakter va boshqa mikroorganizmlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Shigellalarning tarqalganlik darajasiga qarab uchta mintaqaga bo'linadi: birinchisi – Sh.sonnei qo'zg'atuvchisi ko'proq kasallik chaqiradigan mintaqasi; ikkinchisi – Sh.flexneri va Sh.sonnei bir xil etiologik omil bo'lib xizmat qiladigan xastaliklar mintaqasi; uchinchisi – Sh.flexneri ko'p uchraydigan mintaqasi. Takidlash lozimki, mamlakatimiz uchinchi mintaqaga kiradi. Bakteriya va sodda hayvonlardan tashqari viruslar, chunonchi, Rotaviruslarni ham diareyali kasalliklar sababchilaridan biri sifatida ko'rsatish mumkin: RF da 1997-2001 yillar davomida rotavirusli infeksiya bilan kasallangan bemorlar soni oldingi yillarga nisbatan 2 barovarga o'sdi. Bemorlarning 70% dan ortig'i yilning sovuq faslida aniqlangan, 91% holatda esa bolalar orasida uchragan. Insonlarda kechadigan O'YIK lar etiologiyasida, ayrim hollarda ichak adenoviruslari, enteroviruslar va boshqa shunga o'xshash viruslar avlodlari ham rol o'ynashi mumkin.

O'YIK lar etiologiyasidan ham ko'rinib turibdiki, mazkur kasalliklar qo'zg'atuvchilari rang-barang bo'lib, ularning kelib chiqishida ijtimoiy-iqtisodiy, iqlimiy-geografik shart-sharoitlar, shuningdek, kasallanuvchilarning yoshi, ular organizmining ahvoli va yashab turgan sharoiti muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Юсупов Шавкат Рахимбоевич, Абдуллаева Дилфуза Кадамовна, Машарипова Шохиста Сабиоровна, Матякубова Ойша Уриновна Применение пектина в комплексной терапии при острых кишечных инфекциях // Вестник науки и

образования. 2020. №5-2 (83). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/primeneniie-pektina-v-kompleksnoy-terapii-pri-ostryh-kishechnyh-infektsiyah> (дата обращения: 30.10.2023).

2. Ойша Уриновна, М. ., Шохиста Сабириновна, . М. ., Хамида Рустамовна, . И., & Руслан Рустамбекович, Н. . (2022). КЛИНИЧЕСКОЕ ТЕЧЕНИЕ ТУБЕРКУЛЕЗА У БОЛЬНЫХ ГЕПАТИТОМ В. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 565–568. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2405>

3. Ibrakhimova H. R. et al. THE PREVALENCE OF PARASITES IN THE CHILD POPULATION WITH THE DEVELOPMENT OF FUNCTIONAL PATHOLOGY OF ORGANS //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 1-5.

4. Masharipova Sh.S, Ibrakhimova H.R, & Nurllayev R.R. (2023). A METHOD FOR OBTAINING PRECIPITATING SERUMS FOR THE DETECTION OF HUMAN SEMINAL FLUID USED IN THE STUDY OF PHYSICAL EVIDENCE IN FORENSIC BIOLOGICAL LABORATORIES. World Bulletin of Management and Law, 19, 42-44. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2119>

5. Ibrakhimova Hamida Rustamovna. (2022). DEGREE OF CLINICAL SYMPTOMS IN CHILDREN WITH PARASITIC DISEASES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 273–277. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/2822>

6. Шохиста Сабириновна, М., Икром Ахмеджонович, А. ., Сирож Эрназарович, С. ., & Дилфуза Кадамовна, А. . (2022). ТЕЧЕНИЕ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ НА ФОНЕ ГЕПАТИТОВ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 573–577. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2409>

7. Шохиста Сабириновна, М., Икром Ахмеджонович, А. ., Сирож Эрназарович, С. ., & Дилфуза Кадамовна, А. . (2022). ТЕЧЕНИЕ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ НА ФОНЕ ГЕПАТИТОВ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 573–577. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2409>
обращения: 30.10.2023).

8. Ibrakhimova H. R. et al. THE PREVALENCE OF PARASITES IN THE CHILD POPULATION WITH THE DEVELOPMENT OF FUNCTIONAL PATHOLOGY OF ORGANS //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 1-5.

9. Ҳамида Рустамовна Ибраҳимова ПАРАЗИТАР КАСАЛЛИКЛАР ТАШҲИСЛАНГАН ТУРЛИ ЁШДАГИ ОДАМЛАРДА ИММУН СТАТУСИГА ТАВСИФ // Academic research in educational sciences. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/parazitar-kasalliklar-tash-islangan-turli-yoshdagi-odamlarda-immun-statusiga-tavsif>

10. Ибраҳимова Хаида Рустамовна, Нурллаев Руслон Рустамбекович, Артиков Икром Ахмеджанович Влияние паразитарных болезней на особенности развития

туберкулеза у детей, проживающих в Хорезмской области // Наука, техника и образование. 2019. №9 (62). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-parazitarnyh-bolezney-na-osobennosti-razvitiya-tuberkuleza-u-detey-prozhivayuschih-v-horezmskoy-oblasti> (дата обращения: 30.10.2023).

11. Masharipova Shokhista Sabirovna, & Masharipov Sobir. (2023). UDC: 619:616.995.132.6 IMMUNE STATUS OF ADULTS AND CHILDREN WITH AN ALLERGIC BACKGROUND DIAGNOSED WITH ENTEROBIOSIS. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(14), 24–28. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/11911>

12. Masharipova Sh.S, Ibrakhimova H.R, & Nurllayev R.R. (2023). A METHOD FOR OBTAINING PRECIPITATING SERUMS FOR THE DETECTION OF HUMAN SEMINAL FLUID USED IN THE STUDY OF PHYSICAL EVIDENCE IN FORENSIC BIOLOGICAL LABORATORIES. World Bulletin of Management and Law, 19, 42-44. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2119>

13. Sabirovna, M. S., & Sobir, M. (2023). UDC: 619: 616.995. 132.6 IMMUNE STATUS OF ADULTS AND CHILDREN WITH AN ALLERGIC BACKGROUND DIAGNOSED WITH ENTEROBIOSIS. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(14), 24-28.

14. Садуллаев С.Е., Машарипова Ш.С., Машарипов С. (2023). КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ПНЕВМОНИИ, АССОЦИИРОВАННОЙ С COVID-19, У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА. Международный журнал образования, социальных и гуманитарных наук. Finland Academic Research Science Publishers, 11(9), 851–856. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8411154>